


**O'zbekiston Respublikasi**  
**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**

**70810903-Organik dehqonchilik va oziq-ovqat havfsizligi magistratura  
mutaxassisligining malaka talablari**



**Toshkent - 2023**

**ISHLAB CHIQLGAN:**

- Toshkent davlat agrar universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil « 21 » avgust dagi 367 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.



## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	70810903–Organik dehqonchilik va oziq–ovqat havfsizligi magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi.....	4
1.1.	Qo‘llash sohasi.....	4
1.1.1.	70810903–Organik dehqonchilik va oziq–ovqat havfsizligi magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	70810903–Organik dehqonchilik va oziq–ovqat havfsizligi mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlari tasnifi.....	4
1.2.1.	70810903–Organik dehqonchilik va oziq–ovqat havfsizligi mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.....	4
1.2.2.	70810903–Organik dehqonchilik va oziq–ovqat havfsizligi mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	70810903–Organik dehqonchilik va oziq–ovqat havfsizligi mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	70810903–Organik dehqonchilik va oziq–ovqat havfsizligi mutaxassisligi bo‘yicha magistrning kasbiy vazifalari.....	5
2.	70810903–Organik dehqonchilik va oziq–ovqat havfsizligi mutaxassisligi bo‘yicha magistrning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	6
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta‘minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	7
2.3.1.	Kvalifikatsiya.....	7
2.3.2.	70810903–Organik dehqonchilik va oziq–ovqat havfsizligi mutaxassisligi bo‘yicha magistr uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar.....	7
2.3.3.	70810903–Organik dehqonchilik va oziq–ovqat havfsizligi mutaxassisligi bo‘yicha magistr uchun ta‘lim dasturining tuzilishi.....	7
	Bibliografik ma‘lumotlar.....	9
	Kelishuv varag‘i.....	10



## **1. 70810903 – Organik dehqonchilik va oziq – ovqat havfsizligi magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi**

**70810903 – Organik dehqonchilik va oziq – ovqat havfsizligi** magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining o'quv muddati 2 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

**1.1.1. 70810903 – Organik dehqonchilik va oziq – ovqat havfsizligi magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi **5A410203 – Organik dehqonchilik va oziq – ovqat havfsizligi** magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda uz vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor- o'qituvchilari;

- magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini uzlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talablari;

- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan bakalvriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

**1.2. 70810903–Organik dehqonchilik va oziq–ovqat havfsizligi mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi**

**1.2.1. 70810903–Organik dehqonchilik va oziq–ovqat havfsizligi mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:**

**70810903–Organik dehqonchilik va oziq–ovqat havfsizligi** – qishloq xo'jaligi sohasidagi mutaxassislik bo'lib, barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, turli mulkchilik shaklidagi korxonalarida, nodavlat va notijorat tashkilotlarida, markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi organlarida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida organik dehqonchilik va oziq-ovqat havfsizlik faoliyatni tashkil etish va boshqarishga oid kompleks masalalarni xal etish, shuningdek qishloq xo'jaligi tarmoqlari va sohalarini rivojlantirishda organik dehqonchilik va oziq-ovqat havfsizlikni ta'minlash, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

**1.2.2. 70810903– Organik dehqonchilik va oziq – ovqat havfsizligi mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

- fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida xamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;

- real sektor korxonalarining rivojlanishi strategiyasini ifodalovchi oziq-ovqat iqtisodiy havfsizlik kursatkichlar tizimi;

- davlat va shaxs hamda xo'jalik faoliyati subyektlarining oziq-ovqat havfsizligini



ta'minlash, qishloq xo'jaligi sohasidagi huquq-tartibot va qonuniylikni ta'minlash jarayonlari;

- davlat va hududiy boshqaruv organlari, qishloq xo'jaligi va moliya boshqaruvi organlarida boshqaruv jarayonlari;

- qishloq xo'jaligining tarmoqlari, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish majmualari, turli mulkchilik shaklidagi assotsiyalar, korporatsiyalar, konsernlar, firma, klaster va fermer xo'jaliklari, kompaniyalar, xolding, ishlab chiqarish birlashmalarida oziq-ovqat havfsizlik faoliyatini tashkil etish va boshqarish jarayonlari;

- Organik dehqonchilik va oziq-ovqat havfsizligi sohasida ilmiy va amaliy tadqiqot, nazariy va amaliy tahlil, modellashtirishni amalga oshirish jarayonlari;

### **1.2.3. 70810903 – Organik dehqonchilik va oziq – ovqat havfsizligi mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari**

- ilmiy tadqiqot faoliyati;
- pedagogik faoliyat;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyati.

### **1.2.4. 70810903 – Organik dehqonchilik va oziq – ovqat havfsizligi mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy vazifalari:**

70810903 – Organik dehqonchilik va oziq – ovqat havfsizligi mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi kuyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bolishi lozim:

#### **Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat kursatish faoliyatida:**

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;
- tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

- xo'jalik yurituvchi subyekt organik dehqonchilik va oziq-ovqat faoliyatini rejalashtirish, ularni va taxlil qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, huquqiy hamda me'yoriy- huquqiy hujjatlar:

- Organik dehqonchilik va oziq-ovqat havfsizligi bo'yicha yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, organik dehqonchilik havfsizligi sohasida ratsionalizatorlik takliflar va ixtirolar bo'yicha iqtisodiy samaradorlikni aniqlash;

- qabul qilinadigan qarorlarni organik dehqonchilik va oziq-ovqat havfsizligi, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ularni havf-xatar va oqibatlarini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlari variantlarini ishlab chiqishda hamda tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;

- Organik mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha shartnomalarni tuzish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni to'plash, tezkor va statistik hisobotni olib borishni tashkil etish, hisobotlarni tuzish tartiblarini aniqlash;

- Konsalting xizmati faoliyati va shu kabilarni o'z ichiga oladi.

#### **Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:**

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini taxlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharxlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

- mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida



mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

- o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;
- elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal uzlashtirish;
- pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

## **2. 70810903 – Organik dehqonchilik va oziq – ovqat havfsizligi mutaxassisligi bo'yicha magistrnlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil taxlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va taxlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;
- o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;
- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji havfi va tahdidlarni anglash, axborot havfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

### **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;
- ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;
- ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- tashkilot, korxon va ularning alohida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha havfsiz matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadbqiq etish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- *Organik dehqonchilik* va oziq-ovqat havfsizligi asosida qishloq xo'jaligi ekinlarining navlari va ularni yetishtirishning progressiv, yuqori texnologiyaga asoslangan agrotexnik usullarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni loyihalashtirish va o'tkazish;
- ilmiy ishlarda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishi;
- *Organik dehqonchilik* va oziq-ovqat havfsizligi tizimida ekinlarning ratsional strukturasi tuzish;



*Organik dehqonchilik* va oziq-ovqat havfsizligi tizimida asosiy, takroriy va oraliq ekinlar yetishtirib, aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish;

- organik mahsulotlarini yetishtirishda "aqilli qishloq xo'jaligi" GIS, raqamlashtirilgan dehqonchilik hamda kompyuter texnologiyalarini qo'llash va keng foydalanish;

- qishloq xo'jaligi ekinlari mahsulotlari sifatini aniqlashda chet el va vatanimizda qo'llaniladigan innovatsion usullari hamda asboblardan foydalanish;

-organik dehqonchilik va oziq-ovqat havfsizligi tizimida fermer va mutaxassislariga, organik resurstejamkor texnologiyalari bo'yicha maslahat berish *qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak*;

-tuproq, suv va mahsulotlar sifatini nazorat qilish, ekotizimning biologik xilma-xilligini yaxshilash, ekologik barqarorlik tamoyillik prinsiplariga amal qilish;

-qishloq xo'jaligida seleksiya va urug'chilikni ilmiy asoslangan holda yo'lga qo'yish, GMO mahsulotlaridan umuman foydalanmaslik;

### **2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Magistratura mutaxassisligi o'quv rejasi va fanlar dasturlari bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi hamda kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini uzlashtirishi, amaliyotlarni utishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqiladi.

O'quv rejasi kredit-modul tizimi asosida shakllantiriladi. Bunda o'quv jarayoni grafigi, haftalar kesimida o'qish vaqti, attestatsiyalar, amaliyotlar, tatillar, semestrlar bo'yicha o'tiladigan "Umummetodologik fanlar", "Mutaxassislik fanlari", mashg'ulotlar turlari, ajratilgan soatlar, kreditlar, fanlar kodi, Davlat attestatsiyasi va boshqalar ko'rsatiladi.

O'quv rejalariga kiritiladigan majburiy va tanlov fanlar turdosh oliy ta'lim muassasalar bilan xamkorlikda tayanch oliy ta'lim muassasalari tomonidan belgilanadi.

#### **2.3.1. Kvalifikatsiya: organik dehqonchi va tadqiqotchi-pedagog**

#### **2.3.2. 70810903–Organik dehqonchilik va oziq-ovqat havfsizligi mutaxassisligi bo'yicha magistrlar uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:**

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	1380	46
Tanlov fanlar	420	14
Ilmiy faoliyat	1800	60

#### **2.3.3. 70810903–Organik dehqonchilik va oziq-ovqat havfsizligi mutaxassisligi bo'yicha magistrlar uchun ta'lim dasturining tuzilishi:**

T.r	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00	MFM2440	Majburiy fanlar	1380	46	
1.01	ITMM1304	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MFO'MM1404	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	2
1.03	ODOOXITUM1406	Organik dehqonchilik va oziq ovqat xavfsizligida ilmiy-tadqiqot uslublari	180	6	1



1.04	LSHOMETM2404	Almashlab ekishning agroekologik asoslari	120	4	3
1.05	ZDTUBM1404	Zamonaviy dehqonchilik tizimlari va ularni boshqarish	120	4	1
1.06	SRTTM1406	Sug'orishning resurstejamkor texnologiyasi	180	6	2
1.07	ETMETM2406	Ekologik toza mahsulot yetishtirish texnologiyasi	180	6	3
1.08	ODOOX2406	Organik dehqonchilikda yerdan samarali foydalanish	180	6	3
1.09	ODOOXIT1406	Organik dehqonchilik va oziq ovqat xavfsizligida innovatsion texnologiyalar	180	6	3
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>420</b>	<b>14</b>	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	<b>420</b>	14	2,3
		<b>Jami</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
<b>3.00</b>	<b>IF2460</b>	<b>Ilmiy faoliyat</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	1,2,3,4
3.01	ITIMD2436	Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilish	1080	36	1,2,3,4
3.02	IPI2412	Ilmiy-pedagogik ish	360	12	1,2,3
3.03	IATO2412	Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish)	360	12	4
		<b>Jami</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	



## Bibliografik ma'lumotlar

UO'K: 631+333

GuruhT55

OKS 01.040.01

---

### Tayanch so'zlar:

Qishloq xo'jaligi, organik dehqonchilik, oziq-ovqat havfsizligi, kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib o'rganish natijalari, o'quv davri, e-learning texnologiyasi, raqobat, raqobatbardoshlik, qishloq xo'jaligi tarmoqlari va sohalari, huquq-tartibot, ekspert xizmati, baholash, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy- boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, zamonaviy o'lchov asboblari, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.



Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQLILGAN:

Toshkent davlat agrar universiteti

Birinchi prorektori S.Ya. Islamov

2023 yil « 10 » 07




KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limini rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor Sh.Yakubov

2023 yil « 21 » 08

M.O'.



Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Rektor K.Komilov

2023 yil « 20 » 07

M.O'



O'simliklar genetik resurslari ilmiy tadqiqot instituti

Direktori S.Aliqulov

2023 yil « 17 » 07

M.O'.



Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Direktori E.Ravshanov

2023 yil « 18 » 07

M.O'




Toshkent viloyati Buka tumani "ARK BUKA" MChJ

Direktori A.Dushaboyev

2023 yil « 19 » 07

M.O'.





**Toshkent davlat agrar universiteti**  
**70810903-Organik dehqonchilik va oziq-ovqat havfsizligi magistratura mutaxassisligi bo'yicha**  
**malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari**  
**va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent vil.

“10” 07 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Toshkent davlat agrar universiteti birinchi prorektori, professor. S.Ya.Islamov, O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti direktori, S.Aliqulov, Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti direktori, A.Ravshanov, Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti rektori, professor. K.Komilov birgalikda TDAUda ishlab chiqilgan quyidagi magistratura mutaxassisligi malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70810903-Organik dehqonchilik va oziq-ovqat havfsizligi magistratura mutaxassisligi.

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 5847-son farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 iyundagi “Davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to'g'risida”gi PQ-279-son Qarorlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablarini va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**O'simliklar genetik resurslari  
ilmiy-tadqiqot instituti direktori**

**S.Aliqulov**

**Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va  
yetishtirish agrotexnologiyalari  
ilmiy-tadqiqot instituti direktori**

**A.Ravshanov**

**Andijon qishloq xo'jaligi va  
agrotexnologiyalar instituti  
rektori, professor**

**K.Komilov**

**Toshkent davlat agrar universiteti  
birinchi prorektori, professor**

**S.Islamov**